

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



Rektor Sh.Sirojiddinov
2022-yil 26-avgust

ALISHER NAVOIY VA XALQ OG'ZAKI IJODI
fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik

Toshkent – 2022

Fan/modul kodi 302ANXOI 2 4		Fan/modul turi tanlov	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023						
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Jami yuklama (soat)	
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy laboratoriya	Mustaqil ta'lim (soat)		
4	Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti masalasi	4	4	60	20		40	0	60	120
	Jami:	4	4	60	20		40	0	60	120

1. FANNING MAZMUNI

Alisher Navoiy ijodining ildizlari xalq og'zaki ijodi bilan tutashib ketgan. Shoir hayoti va faoliyati ham xalqning sevimli mavzusiga aylangani sir emas. Bunga shoir haqidagi afsona va rivoyatlar ham dalil. Shoir asarlarining, ayniqsa, dostonlari syujeti va qahramonlarining folklordagi zamini alohida e'tiborni tortadi. Shu ma'noda mazkur fanning asosiy maqsadi – Alisher Navoiy ijodining xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq jihatlari o'rganishdir. Yoshlarning ma'naviy dunyosini milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga kuchli va samarali ta'sir ko'rsatadigan, ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyoti va o'zbek milliy ma'naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo'lida ochiqch – kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini xalq og'zaki ijodi bilan bog'lab o'rganish orqali ularda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, ushbu muhim masala bo'yicha muayyan bilim hosil qilish ushbu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun "Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi" fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

– talabalarga adabiyot va xalq og'zaki ijodi, Alisher Navoiy ijodida folklor, shoir asarlarining folklordagi zamini haqida ma'lumot berish;

– Navoiy dostonlari syujeti va qahramonlari genezisining xalq og'zaki ijodiga aljqadorligini ilmiy jihatdan asoslangan dalillar bilan chuqur o'rganish va hayotga tatbiq etish usul va vositalarni aniqlash;

– badiiy ijod namunalarini og'zaki ijod bilan bog'lab o'rganish orqali badiiy so'z shukhi, o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish **malakasini shakllantirish**;

– Navoiy asarlarining o'zbek xalqi ma'naviyatining shakllanishi va rivojiga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lumot berish orqali talabalarda milliy ma'naviyatimizning teran ildizlari haqida **tasavvur hosil qilish**;

– Alisher Navoiy ijodini xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlikda tadqiq etish, asarlari mohiyatini teran anglash, to'g'ri tahlil va **tadqiq etish ko'nikmasini hosil qilish**;

– egallangan bilim va ko'nikmalarni jamiyatda ezgu insoniy fazilatlarining barqaror bo'lishga yo'naltirish va h.k.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ushbu fan Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosining folklor bilan aloqadorligi masalasi haqidagi eng muhim ma'lumotlarni, shoir hayoti, faoliyatining xalqona talqinlarini, ularni aks ettirgan rivoyatlarni, lirik, epik hamda ilmiy-nasriy asarlarda turli darajada istifoda etilgan folklorga oid materiallarni shoir badiiy mahoratiga bog'lab o'rganish masalalarini qamrab olgan.

"Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi" fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalarining bilimlarini mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokni o'stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun "Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

– yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodi, Alisher Navoiy ijodida folklor, shoir asarlarining folklordagi zamini, Navoiy dostonlari syujeti va qahramonlari genezisining xalq og'zaki ijodiga aloqadorligi bilan bog'liq masalalar haqida tavsifaga ega bo'lishi;

– Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti masalasi, Navoiy siymosining xalq og'zaki ijodidagi talqinlari, Navoiyning lirik asarlarida mifologik va afsonaviy syujet hamda obrazlarning istifoda etilishi, "Xamsa" dostonlari syujet va obrazlarining folklordagi zamini, "Farhod va Shirin" dostonida xalq og'zaki ijodiga xos syujet va motivlar, "Layli va Majnun" dostonining folklordagi zamini, "Lison ut-tayr" dostoni hikoyalarning

folklor bilan bog'lanishi, Navoiy dostonlarining xalq variantlari bilan bog'liq masalalarni *bilishi va ulardan foydalana olishi* talab etiladi.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarining bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

I. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma yoki og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Izoh: *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muvyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarining bilimni baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

Ma'ruza mashg'ulotlari

IV semester

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti masalasi			
1	Kirish. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti masalasi	Alisher Navoiy asarlarida xalq og'zaki ijodining o'rni. "Mezon ul-avzon" da xalq og'zaki ijodi va unga xos bo'lgan janrlar haqida. Shoir lirikasi va dostonlarida folklorning o'rni va ahamiyati.	2
2	Navoiy siyomosining xalq og'zaki ijodidagi talqinlari	Alisher Navoiy haqida xalq orasida keng tarqalgan rivoyatlar. Ularda shoir shaxsining talqin etilishi. Ushbu rivoyatlarning adabiy qimmatlari.	2
3	Navoiyning lirik asarlarida mifologik va afsonaviy syujet hamda obrazlarning istifoda etilishi	Navoiy lirik asarlarida xalq og'zaki ijodiga oid muhim o'rinlar. Navoiy lirikasida mifologik va afsonaviy timsollar. Talmeh, tamsil va irsoli masal badiiy san'atlari.	2
2-bob (modul). "Xamsa" dostonlari			
4	"Xamsa" dostonlari syujet va obrazlarining folkloridagi zamini.	"Xamsa" dostonlari syujetining xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi va sabablari. Xalqona syujetlarning yozma adabiyotga transformatsiyasi va ijodkor konseptual qarashlarining badiiy taqdimotidagi ahamiyati.	2
5	"Farhod va Shirin" dostonida xalq og'zaki ijodiga xos unsurlar. Ifoda tarzi – bayon qilish uslubida folklorga xos jihatlar. Mifologik syujet va obrazlar.	"Farhod va Shirin" dostonida xalq og'zaki ijodiga xos unsurlar. Ifoda tarzi – bayon qilish uslubida folklorga xos jihatlar. Mifologik syujet va obrazlar.	2
6	"Layli va Majnun" dostonining folkloridagi zamini	Arab afsonasining yozma adabiyotdagi turkona talqini. "Layli va Majnun" afsonasi Navoiyning komil ishqni talqin etishi uchun muhim vosita	2

	ekanligi. Afsonaning yozma adabiyotga ko'chishidagi muhim o'zgarishlar.		
3-bob (modul). Navoiy dostonlarining xalq variantlari			
7	"Lison ut-tayr" dostoni hikoyalarning folklor bilan bog'lanishi	"Lison ut-tayr" dostoni hikoyatlarning muayyan qismi xalq og'zaki ijodi namunalari yozma adabiyotdagi o'ziga xos transformatsiyasi ekanligi. Hikoyatlardagi xalqona syujet va obrazlar.	4
8	Navoiy dostonlarining xalq variantlari	"Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlarining xalq varianlari. "Qissayi Farhodu Shirin", "Kitobi Majnun Layli" va boshqa asarlarning adabiy qimmatlari.	4
	Ja'mi		20

2. Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruha bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mavzuga mos pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Navoiyning lirik asarlarida folklor an'analari			
1	Navoiy siymosining xalq og'zaki ijodidagi talqinlari	Navoiy hayoti va faoliyatiga oid afsona va rivoyatlar tahlili	4
2	"Makorim ul-axloq"da Navoiy siymosi.	Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridagi hikoyatlarda Navoiy siymosining afsonaviy talqinlarda taqdim etilishi.	4
3	Navoiyning lirik asarlarida folklor an'analari	Navoiy g'azalligidagi mifologik va afsonaviy timsollar. Talmeh, tamsil va irsoli masal badiiy san'atlari. "Yog'lig'in eykim tikarsen..." deb boshlanuvchi hamda "Ko'k binafshazorini..." deb boshlanuvchi g'azallari tahlili	4
2-bob (modul). "Xamsa" dostonlari			
4	"Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlarda folklor elementlari	Maqolotlarda talmeh, tamsil, irsoli masal va tashbeh kabi badiiy san'atning qo'llanilishi. Hikoyatlarda folklorga xos xususiyatlar.	4
5	"Farhod va Shirin" dostonida mifologik obraz va syujetga daxldor	"Farhod va Shirin" dostonida dostonida mifologik obraz va syujetga daxldor elementlar.	2

elementlar.	Xalq og'zaki ijodiga xos ifoda usuli.		
6	"Layli va Majnun" dostonining afsonaviy zamini va uning badiiy talqin etilishi	Layli va Majnun haqida xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlar. Doston uslubida xalq og'zaki ijodiga uyg'unlik	2
7	"Sab' ai sayyor" dostonidagi hikoyalarda xalq og'zaki ijodiga xos uslub	Doston kompozitsiyasida Hikoyatlar tahlil qilinadi.	4
8	"Saddi Iskandariy" dostonidagi hikoyat va hikmatlarda xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlar	Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlar. Ularning tadjriy takomili. Doston hikoyatlarida xalq og'zaki ijodi elementlari.	4
3-bob (modul). Navoiy dostonlarining xalq variantlari			
9	"Lison ut-tayr" dostonida xalq og'zaki ijodiga oid xususiyatlar	"Lison ut-tayr" dostoni syujeti va qoliplovchi hikoyaning xalq og'zaki ijodi bilan aloqadorligi. Hikoyatlarda folklorga xos xususiyatlar. Qaqqus haqidagi hikoyat.	4
10	"Mahbub ul-qulub"da xalqona uslub. Asardagi maqol va matallar tahlili	Hikoyatlarning xalq og'zaki ijodiga aloqadorlik darajasi. Tanbehlaridagi maqol va matallar o'rganiladi.	2
13	"Tarixi muluki Ajam" asaridagi mifologik, afsonaviy syujet va timsollar	Tarixi muluki Ajam" asaridagi Ajam shohlariga oid mifologik, afsonaviy syujet va timsollar.	2
14	Navoiy dostonlarining xalq variantlari	"Qissayi Farhod-u Shirin", "Kitobi Majnun-u Layli" va boshqa asarlarni o'qish va ulardagi mavzu transformatsiyasini aniqlash; sabablarini ko'rsatish.	4
Jami:			40 s.

4. Mustaqil ta'lim

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- Amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- Ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- Masalalar yechimlari va grafiklari orasidagi bog'liqliklarni tushuna bilish;

- Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;
- Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash; Uy vazifalarini bajarish va h.k.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Navoiy va folklor an'analari				
1	"El desa Navoiyni" asarida Navoiy siymosi.	ma'ruza	"El desa Navoiyni" asarini o'qib-o'rganish.	4
2	"Makorim ul-axloq" asarida Navoiy afsonaviy qiyofasi va uning haqiqatga muvofiqligi masalasi.	amaliy mashg'ulot	"Makorim ul-axloq" asarini o'qish va unga asosan shoirning afsonaviy qiyofasini tiklash.	4
3	"Me'zon ul-avzon"dagi xalq og'zaki ijodiga oid janrlar va ular bilan bog'liq boshqa msalalar.	amaliy mashg'ulot	"Me'zon ul-avzon" dagi xalq og'zaki ijodiga oid janrlar va ular bilan bog'liq boshqa msalalarni o'rganish, konspektlashtirish.	4
4	Navoiy g'azallaridagi talmeh san'ati qo'llanilgan baytlar.	ma'ruza	Navoiy g'azallaridagi talmeh san'ati qo'llanilgan baytlarni tanlab olib konspektlashtirish.	4
5	Navoiy g'azallaridagi tamsil va irsoli masal san'atlari qo'llanilgan baytlar.	amaliy mashg'ulot	Navoiy g'azallaridagi tamsil va irsoli masal san'atlari qo'llanilgan baytlarni tanlab olib konspektlashtirish.	4
2-bob (modul). "Xamsa" dostonlari				
6	Farhodning Yunonistonga safari chog'ida shoir qo'llagan mifologik obrazlar.	ma'ruza	Farhodning Yunonistonga safari chog'ida shoir qo'llagan mifologik obrazlarning genezisini o'rganish.	4
7	Layli va Majnun haqidagi afsonalar.	amaliy mashg'ulot	Layli va Majnun haqidagi afsonalarni o'rganish	4
8	"Ishq otashining samandari" (N.Komilov) maqolasida "Layli va	amaliy mashg'ulot	"Ishq otashining samandari" (N. Komilov) maqolasini	4

8

	Majnun" haqiqati		konspektlashtirish	
9	"Sab'ayi" sayyor" dostonidagi "muqbil va Mudbir" haqidagi hikoyaning xalq ortaklariga uyg'unligi	amaliy mashg'ulot	"Sab'ayi" sayyor" dostonidagi "muqbil va Mudbir" haqidagi hikoyani xalq ortaklari bilan qiyoslab o'rganish.	4
10	"Saddi Iskandariy" dostonidagi "Lu'bati Chin" haqidagi bobda xalqona elementlar.	amaliy mashg'ulot	"Saddi Iskandariy" dostonidagi "Lu'bati Chin" haqidagi bobni tahlil qilish.	4
3-bob (modul). Navoiy dostonlarining xalq variantlari				
11	Qaqnus hikoyasining ildizlari va inkishofi.	ma'ruza	Qaqnus hikoyasining ildizlari va inkishofini o'rganish.	4
12	"Tarixi muluki Ajam" asaridagi hukmdorlar tavsifidagi mifologik elementlar.	ma'ruza	"Tarixi muluki Ajam" asaridagi hukmdorlar tavsifidagi mifologik elementlarni aniqlash.	6
13	"Qissayi Farhod-u Shirin" xalq kitobining adabiy qimmat.	amaliy mashg'ulot	"Qissayi Farhod-u Shirin" xalq kitobida yozma adabiyotga xos elementlarni o'rganish	5
14	"Kitobi Majnun-u Layli" xalq kitobining adabiy-ma'rifiy qimmat.	amaliy mashg'ulot	Kitobi Majnun-u Layli" xalq kitobida yozma adabiyotga xos elementlarni o'rganish	5
Jami:				60 s.

7. FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижоди. –Т.: Фағур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
2. Сирожидинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшундлик. Дарслик. – Т.: ТАМАДДУН, 2018.
3. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожидинов. – Т.: Шарқ, 2016.

9

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал).
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт таракқиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрел).
6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-20 жилдлар. – Т.: Фан, 1987-2003.
7. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-10 жилдлар. – Т.: Гафур Гулом нашриёти, 2011.
8. Маллаев Н. Навоий ижодиётининг халқчил негизи. –Т.:, 1973.
9. Маллаев Н. “Сўз санъатининг гултожи”. –Т.:, 1991.
10. Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. –Т., 2015.
11. Зайниддин Восифий. Бадосъ ул-вақоъ. –Т., 1979.
12. Жўраев М. Эл деса Навоийни. А.Навоий хақида ривоятлар. – Т.: Чўлпон, 1991й.
13. Исоҳов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.
14. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005.
15. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
16. Бертелс Э.Э. Навои. – М-Л.: Изд-во Академ наук, 1948
17. Костохин Э.А. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. – М.: Наука, 1972.
18. Алиев Г. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985.
19. Фитрат А. “Фарход ва Ширин” достони тўғрисида / Танланган асарлар. ИИ-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000.
20. Афзалов М. “Фарход ва Ширин”нинг халқ варианты хақида. Филол.фан. номз... дисс. – Т., 1950.
21. Эркинов С. Алишер Навоийнинг “Фарход ва Ширин” достони ва уни қиёсий ўрганишнинг баъзи масалалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1974.
22. XVII асрдан XIX асрнинг II ярмигача, Умар Боқий ва Махзун / Ўзбек насри тарихидан. – Тошкент: Фан, 1982.
23. Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарход киссаси. – Тошкент: Фан, 1985.

24. Искандарнома. Нашрга тайёрловчи Тожибоева О. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.

25. Насри Ҳамсан беназир. Нашрга тайёрловчи Тожибоева О. –Тошкент: Тамаддун, 2018.

Internet saytlari

1. www.alishernavoioy.uz
2. www.ziyo-net.uz
3. www.literature.uz
4. www.kutubxona.uz

8. ISHCHI O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022-yil “20” “avgust” dagi “1” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

“O'zbek adabiyoti tarixi” kafedrasi mudiri, f.f.d., prof.

N.Jabborov

 (imzo)

Tuzuvchi:

Mullaxo'jayeva K.  (imzo)

ToshDO'TAU, “O'zbek adabiyoti-tarixi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

Taqrizchilar:

Rahmonova Z. _____ (imzo)

O'zr FA O'zbek tili, adabiyot va folklor institute “O'zbek mumtoz adabiyoti” bo'limi katta ilmiy xodimi, PhD;

Tojiboyeva O.  (imzo)

“O'zbek adabiyoti tarixi” kafedrasi dotsenti, PhD.